



FARG'ONA VILOYATI QO'QON SHAHAR HOKIMINING FARMOYISHI

2022 йил «29» апрель

85-11-166-F/22

Қўқон шаҳар ҳокимлиги

О‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-apreldagi 199-F-son farmoyishi hamda Farg‘ona viloyati hokimining 2022-yil 29-aprel kunidagi 173-11-0-F/22 sonli Farmoyishi to‘g‘risida

Mahallalar, aholi turar joylari, guzarlar xiyobonlar, ziyoratgohlar, qabristonlarni hamda bolalar maydonchalarini tartibga keltirish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish, sog‘lom turmush tarzi va sanitariya-gigienik madaniyatni targ‘ib qilish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-apreldagi 199-F-son farmoyishi ijrosini ta‘minlash maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-apreldagi 199-F-son farmoyishi hamda Farg‘ona viloyati hokimining 2022-yil 29-apreldagi 173-11-0-F/22 farmoyishi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur farmoyishga muvofiq:

O‘zbekiston “Mahalla” xayriya jamoat fondi, O‘zbekiston faxriylarining qo‘llab-quvvatlash “Nuroniylar” jamg‘armasi, O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi, Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi, Yoshlar ishlari agentligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoatchilik vakillarining **2022-yil 30-aprel kuni** mamlakatimizning barcha hududlarida **“Mahalla obodligi – yurt farovonligi”** obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish umumxalq xayriya hasharini o‘tkazish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanganligi;

O‘zbekiston “Mahalla” xayriya jamoat fondi umumxalq hasharidan tushgan

mablag'larni kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan oilalarga, ijtimoiy himoyaga muhtoj keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va yolg'iz qariyalarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish, "Nuroniylar" jamg'armasi, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi "Obod va xavfsiz mahalla" jamg'armasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, xodimlariga bir yilda bir marta to'lanadigan lavozim maoshi miqdoridagi moddiy yordam harajatlarini moliyalashtirish hamda ichki turizm kabi tadbirlarga sarflanishi tavsiya etilganligi inobatga olinsin.

2. 2022-yil 30-aprel kuni **"Mahalla obodligi – yurt farovonligi"** obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish umumxalq xayriya hashari (keyingi o'rinlarda – umumxalq hashari)ni o'tkazish bo'yicha viloyat ishchi guruh tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ishchi guruh Ya.Rasulov, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi B.Pulatov, Ichki ishlar boshqarmasi N.Sultonov, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi G'.Mirzamaxmudov, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmasi X.Azizov, Yoshlar ishlari agentligi shahar boshqarmasi A.Yunusov, shahar hokimlari umumxalq hasharini o'tkazish doirasida quyidagi tadbirlarni amalga oshirilishini nazarda tutsinlar:

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida barcha turar joy mavzolari va mahallalarda gul ko'chatlari, mevali va manzarali daraxtlar ekish, daraxtlarni oqlash va butash;

ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari ayniqsa ehtiyojmand, mehr-muruvvatga muhtoj, boquvchisiz qolgan keksa va nogironligi bo'lgan fuqarolar uy-joy sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashish;

mahallalar, aholi punktlari, ko'pqavatli binolar va hovlilar atrofi, guzarlar, xiyobonlar, ziyoratgohlar, qabristonlarni hamda bolalar maydonchalarini tartibga keltirish;

obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish qatnashchilarini zarur texnika vositalari va anjomlar bilan ta'minlash;

umumxalq hashari doirasida bo'lmagan boshqa turdagi jamoat ishlari, shu jumladan qurilish-ta'mirlash va qishloq xo'jaligi ishlariga majburiy jalb etishga

qat'iy yo'l qo'yilmagan holda obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, ish o'rinlarini tartibga keltirish ishlarini amalga oshirish;

joylarda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari o'tkazilishi jarayonida to'plangan chiqindilarning mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa mutasaddi idoralar tomonidan alohida belgilangan joylarga olib chiqilishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-maydagi 349-son "O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq umumxalq hasharini tegishli tashkilotlar hududida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya etilgan holda o'tkazish;

avtomobil yo'llari, harakatlanish tig'iz bo'lgan ko'chalar, suv ob'ektlari, qirg'oqbo'yi hududlar va zonalar, qurilish maydonlari, bino va inshootlar tomlari, xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari, shuningdek, insonlarning hayoti yoki sog'lig'iga xavfli bo'lgan boshqa joylarda ixtiyoriy tashabbus bilan hasharlar va boshqa ishlarni o'tkazish taqiqlanganligini qat'iy nazoratga olish;

targ'ibot-tashviqot tadbirlarida joylarda ish beruvchilar tomonidan hasharda ko'zda tutilgan ishlar uchun xodimlarni majburiy tarzda jalb etishga mutlaqo yo'l qo'ymaslik.

4. Shahar hokimining o'rinbosari Ya.Rasulov bilan birgalikda belgilangan miqdordagi ko'chatlar hamda qalamchalarni olish istagini bildirgan hududlardagi barcha xo'jalik birlashmalari va tashkilotlarga shartnoma asosida va qonunchilikda belgilangan tartibda pul o'tkazish yo'li bilan tashkilotlarning ushbu tadbirlar uchun nazarda tutilgan mablag'lari hisobidan yetkazib berilishini ta'minlasin.

5. Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi B.Pulatov, "Mahalla" xayriya jamoat fondi shahar boshqaruvi A.Mamayusupov, Yoshlar ishlari agentligi shahar boshqarmasi A.Yunusov va mahalliy davlat hokimiyati organlari umumxalq hasharini o'tkazish tadbiriga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, uy-joy mulkdorlari shirkatlari, shuningdek viloyatning barcha aholisini, ayniqsa, yoshlarni jalb etishda ixtiyoriylikni ta'minlansin.

6. Shahar va tuman hokimliklari, "Mahalla" xayriya jamoat fondi "Muruvvat va saxovat" oyligi davomida "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi hisobidan "Temir", "Ayollar" va "Yoshlar" daftarlarida turgan ijtimoiy himoyaga muhtoj

aholi qatlamlari, ayniqsa ehtiyojmand, mehr-muruvvatga muhtoj, boquvchisiz qolgan keksa va nogironligi bo‘lgan fukarolarning uy-joy sharoitlarini yaxshilash va moddiy yordamlar ko‘rsatish ishlarini amalga oshirsin.

7. Umumxalq hasharini o‘tkazish munosabati bilan boshqarmalar, idoralar va boshqa tashkilotlarda mehnat qilayotgan xodimlarning ixtiyoriy mablag‘lari O‘zbekiston “Mahalla” xayriya jamoat fondining Qo‘qon shahar bo‘limiga (**x/r: 20212000003715086001, Qo‘qon shahar Milliy bank, MFO:00545, STIR: 202468067,**) hamda tuman va shahar bo‘linmalarining bankdagi hisobvaraqlariga o‘tkazilishi tavsiya etilsin.

8. Ichki ishlar boshqarmasi N.Sultonov, Milliy gvardiya boshqarmasi A.Gafurov, Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi A.Nazirov, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi G’.Mirzamaxmudov umumxalq hashari kunlari sanitariya-epidemiologik talablarga rioya etilishi va jamoat tartibini saqlash va yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash choralarini ko‘rsin hamda texnik jihatdan soz bo‘lgan texnika vositalaridan foydalanishni nazoratga olsin.

9. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi U.Norboev, “Muloqot” teleradiokompaniyasi X.Shermatov, “Qo‘qon sadosi” gazetasi tahririyati va boshqa ommaviy axborot vositalarida umumxalq hasharini keng yoritish tavsiya etilsin.

10. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari Ya.Rasulov zimmasiga yuklatilsin.

Qo'qon shahar hokimi



M.Usmonov

Qo‘qon shahar hokimining
2022 yil 29 apreldagi
85-11-166-F/22-son farmoyishiga
1-ilova
Qo‘qon shahar hokimining
2022-yil “___” apreldagi
___-sonli farmoyishiga
ilova

**2022-yil 30-aprel kuni “Mahalla obodligi – yurt farovonligi”
obodonlashtirish va ko‘lamzorlashtirish umumxalq xayriya
hasharini o‘tkazish bo‘yicha Qo‘qon shahar ishchi guruhi**

TARKIBI

1. Ya.Rasulov - Shaxar hokimining birinchi o‘rinbosari,
Ishchi guruh rahbari
2. B.Pulatov - Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi
boshlig‘i, *ishchi guruh rahbari o‘rinbosari*

Ishchi guruh a‘zolari:

3. G‘.Mirzamaxmudov - Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat
salomatligi boshqarmasi boshlig‘i
4. X.Azizov - Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi
5. L.Mamajonov - Moliya bo‘limi boshlig‘i
6. N.Sultonov - Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i
7. A.Nazirov - Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i v.v.b.
8. A.Yunusov - Yoshlar ishlari agentligi shahar bo‘limi boshlig‘i
9. A.Mamayusupov - O‘zbekiston “Mahalla” xayriya jamoat fondi shahar
bo‘limi boshqaruvi raisi